O‘TLOQI ALLYUVIAL TUPROQLARI SHAROITIDA PARVARISHLANGAN MAKKAJO‘XORI NAVLARINING KO‘CHAT QALINLIGI

F.Jo‘rayev

texnika fanlari doktori professor

L.Isoyeva

tayanch doktorant

M.Zuvaydillayeva

talaba

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti (Buxoro)

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi suv tanqisligi va global iqlim o‘zgarishi sharoitida makkajo‘xorining yangi ser hosil, iqlim o‘zgarishiga mos navlarini asosiy muddatlarda yetishtirishda tomchilatib sug‘orish usuli va sug‘orish tartiblarini ilmiy asoslash natijasida suvni tejash, yuqori don va yashil massa hosili olish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni homashyo va chorvachilikni to‘yimli ozuqa bilan ta’minlashga erishiladi. Shuningdek makkajo‘xori navlarini tomchilatib sug‘orishda azotli, fosforli va kaliyli mineral o‘g‘itlarini suv bilan birgalikda qo‘llashning makkajo‘xorini o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri hamda ularni qo‘llashning maqbul texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim sanaladi. Bugungi kunda respublikada makkajo‘xorining o‘rtacha don hosildorligi gektariga 35-45 sentnerni tashkil etmoqda. Lekin, mavjud imkoniyatlardan keng foydalanilgan holda ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash natijasida ushbu ko‘rsatkichni yanada oshirish mumkin. Makkajo‘xori yetishtirishdagi mavjud agrotexnologiyalarni takomillashtirish, hosildorlikni shakllanishida muhim o‘ringa ega bo‘lgan sug‘orish usuli va tomchilatib sug‘orish tartiblarini makkajo‘xorining o‘sish, rivojlanish va hosildorlikka ta’sirini tadqiq qilishni maqbullashtirish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Tadqiqot natijalari. Ko‘p yillik qishloq xo‘jaligi sohasida ko‘plab o‘simliklarni turli xil sinovlar bo‘yicha dala ishlab chiqarish tajribalarini o‘rganish jarayonida albatta ko‘chat qalinligini aniqlash muxim hisoblanadi, shu kabi makkajo‘xori navlarini xam egatlab va tomchilatib sug‘orishlar amalga oshirilishida ekilgandan boshlab hosil yig‘ishtirish jarayoniga qadar, o‘simlik ustida o‘tkazilgan barcha fenologik, biometrik ma’lumotlarni dala daftariga kiritish jarayonida tajriba dalasida borib o‘rganilgan o‘simlik urug‘idan unib chiqqan ko‘chatlarni aniqlash muhim jarayon, sababi tajribada o‘rganilayogan o‘simlikda gektar hisobida qancha ko‘chat borligini bilish asosiy tajribaning natijasi sanaladi, sababiki biz o‘rganilayotgan tajribadan belgilangan ko‘chat qalinligini olishimiz biz uchun dastlabki qadam va natija sanaladi, mavjud bor ko‘chat orqali keyingi agrotadbirlari qo‘rqmasdan olib boramiz, aks holda belgilangan ko‘chat olinmasa, turli ob-xavo sharoiti sababli ko‘chat kam bo‘lishi sababidan, belgilangan hosildorlik olinmasligi mumkin. Agarda belgilangan ko‘chat qalinligi olinsa, mavsum ohirigacha barcha o‘tkaziladigan sug‘orishlar, o‘g‘itlash ishlari va begona o‘tlardan tozalash, agrotexnik tabdirlar qator oralariga ishlov, kultivatsiya ariqlar oshich kabilarni me’yorida ta’minlab berilsa, yuqori va sifatli don va pichan yoki silos hosildorligiga erishish mumkin. O‘zi qishloq xo‘jaligi sohasida yetishtiriladigan barcha ekinlarni dastlabki ko‘chat

qalinligi va ekin hosildorligini yig‘ishtirishdan oldingi ko‘chat qalinligi bu degani yilda 2 marta ko‘chat qalinligini aniqlash kerak, sababiki dastlabki ko‘chat qalinligining kamayishining asosiy sabablari o‘suv davri davomida bajarilga qator orasiga beriladigan ishlovlar yoki bo‘lmasa boshqa sabalarni keltirilishi hisobidan belgilangan olingan ko‘chatlarning mavsumiy davrning og‘irida kamayganligini kuzatamiz. Tajriba o‘tkazilgan 2020-yilda dala sharoitidagi makkajo‘xori navlari bo‘yicha ko‘chat qalinligi dastlabki paydagi aniqlanish jarayonida variantlar bo‘yicha taxlil qilib chiqadigan bo‘lsak, quyidagicha bo‘lgan, O‘zbekiston-601 navi ekilgan bo‘lib, sug‘orish oldi tuproq namligi 70-75-70% bo‘lganda, sug‘orish jarayonida tuproqning 0-70 sm hisobiy qatlamlari inobatga olingan 1-ta variantdan 5 ta nuqta ya’ni konvert usulida aniqlangan bo‘lib, tajribaning 1-variantida amal davri boshida olingan 5 ta nuqtadagi ko‘chatalrining o‘rtacha qalinligi 62,5 ming/donani tashqil qildi, sug‘orish oldi tuproq namligi egatalab sug‘orilgan sug‘orish tartiblari 70-80-75% bo‘lganda olingan ko‘chat qalinligi 62,9 ming dona bo‘lgan, makkajo‘xorining NS-6010 navi ekilgan tajribaning 3 va 4-variantlarida ko‘chat qalinliklari 62,3-62,8 ming dona bo‘lganligi ko‘chat qalinligini sanash jarayonida aniqlangan. Tomchilatib sug‘orishlar o‘tkazilgan O‘zbekiston-601 navida ko‘chat qalinligi sug‘orish oldi tuproq namliklari 70-75-70% va 70-80-75% bo‘lgan 5 va 6-variantlarda ko‘chat qalinligi 62,2-61,1 ming dona bo‘lganligi aniqlangan. NS-6010 navida esa xuddi yuqorida keltirib o‘tilgan sug‘orish tartiblariga va tuproqning hisobiy qatlami 0-50 sm bo‘lganda, 62,2 va 62,4 ming dona ko‘chat borligi aniqlandi. Bu berilgan tariflar 2020 yilda o‘tkazilgan tajriba natijalarining dastlabki mavsumi hisoblanib, amal davri oxiriga kelib, xuddi shu aniqlangan maydonda ko‘chat qalinligining kamayishi kuzatilgan bo‘lib, variantlar bo‘yicha 1 va 2-variantlarda 620-360 dona kamayganligi kuzatilgan, NS-6010 navida sug‘orish oldi tuproq namligi 70-75-70% va 70-80-75% sug‘orish tartiblarida amalga oshirilgan 0-70sm hisobiy qatlam bo‘yicha ¾- variantlarda 400-520 donaga kamayganligi kuzatilgan, tomchilatib sug‘orilgan variantlarda 5 va 6-variantlarda 40 dona va 10 donaga kamayganligi tajribada aniqalangan, 7/8-variantlarda makkajo‘xorining NS-6010 navida 36 donadan 25 donaga kamayganligi tajribada o‘tkazilgan ko‘chat qalinligini aniqlash jarayonida asoslandi.

1-jadval

Makkajo‘xori o‘simligini turli sug‘orishlar bo‘yicha ko‘chat qalinligi ming/dona gektar hisobiga 2020-yil

№	Variantlar	5 ta nuqta bo‘yicha na’munalar					O‘rtacha	Ko‘chat qalinligi kamayishi
		1	2	3	4	5		-
Vegetatsiya (amal davri) oxirida dona hisobida								
“O‘zbekiston-601” navi								
1	Egatlab sug‘orish 70-75-70 %	61,2	62,1	62,2	62,6	61,3	61,9	0,62
2	Egatlab sug‘orish 70-80-75 %	61,3	62,4	62,0	63,3	63,7	62,5	0,36

“NS-6010” navi								
3	Egatlab sug‘orish 70-75-70 %	61,8	61,9	62,5	61,1	62,2	61,9	0,40
4	Egatlab sug‘orish 70-80-75 %	61,2	61,9	62,1	61,8	61,9	61,8	0,52
“O‘zbekiston-601” navi								
5	Tomchilatib sug‘orish 70-75-70 %	63,1	61,0	63,7	61,3	61,7	62,2	0,04
6	Tomchilatib sug‘orish 70-80-75 %	60,6	61,3	61,7	58,3	63,1	61,0	0,10
“NS-6010” navi								
7	Tomchilatib sug‘orish 70-75-70 %	61,0	64,5	61,0	61,3	61,4	61,84	0,36
8	Tomchilatib sug‘orish 70-80-75 %	63,1	61,2	64,3	62,1	60,05	62,15	0,25

Makkajo‘xorining ko‘chat kalinligi tajribaning 2020/2022 yillar davomida o‘rganish amalga oshirilgan. 2020-yil va undan keyingi yillar bo‘yicha kam kamayishi tomchilatib sug‘orilgan variantlarda qator orasiga ishlov berish kam o‘tkazilganligi va texnika ishlov berishning soni kam o‘tkazilganligi sababli ko‘chatlarning xam nobud bo‘lishi kamroq bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4243–sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-oktabrdagi «O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020/2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5853-sonli.
3. Xudoyqulov J.B, Azizov Q.K va boshqalar// Makkajo‘xori yetishtirish// Agrobank 100 ta kitob to‘plami 24-kitob–Toshkent-2021 Tasvir nashriyoti-Colorpack MChJ- B.40
4. Isomiddinova Yu, Mambetnazarov A, “Urug‘dorilagich preparatlarning makkajo‘xori o‘sishi va rivojlanishiga ta’siri” O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi jurnali -Maxsus son. 2022-yil–B 47-48
5. Jo‘rayev F., L.Isoyeva va M.Shodmanova//Makkajo‘xori navlarining tomchilatib sug‘orish agrotexnologiyasi//Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi–Xiva-2023 №10-1 soni B.113-116